

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA GENDER KATEGORIYASINING IFODALANISHI: LINGVISTIK VA SOTSIOMADANIY YONDASHUV

Urolova Rayxona Jamshid qizi
Oriental Universiteti Samarqand
kampusi ingliz tili fani o‘qituvchisi,

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda o‘zbek va ingliz tillarida gender kategoriyasining ifodalanishi lingvistik hamda sotsiomadaniy yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida genderning grammatik, leksik va semantik darajalarda namoyon bo‘lish xususiyatlari o‘rganilib, ikki til o‘rtasidagi o‘xshash va farqli jihatlar aniqlanadi. O‘zbek tilida gender kategoriyasining grammatik jihatdan mavjud emasligi va uning asosan leksik hamda kontekstual vositalar orqali ifodalanishi ko‘rsatib beriladi. Ingliz tilida esa genderning qisman grammatik ifodasi, ayniqsa olmoshlar tizimi orqali namoyon bo‘lishi tahlil qilinadi. Shuningdek, gender kategoriyasining ifodalanishida sotsiomadaniy omillarning ta’siri, xususan, zamonaviy ingliz tilida gender neytralligi tendensiyasining kuchayib borayotgani yoritiladi.

Kalit so‘zlar: gender kategoriyasi, lingvistik ifoda, sotsiomadaniy yondashuv, o‘zbek tili, ingliz tili, qiyosiy tahlil, gender neytralligi, grammatik jins, leksik vositalar, sotsiolingvistika.

Аннотация. В данном исследовании анализируется выражение категории гендера в узбекском и английском языках с лингвистической и социокультурной точек зрения. В рамках исследования рассматриваются особенности проявления гендера на грамматическом, лексическом и семантическом уровнях, а также выявляются сходства и различия между двумя языками. Показано, что в узбекском языке категория грамматического рода отсутствует, и гендер в основном выражается с помощью лексических и контекстуальных средств. В английском языке, напротив, гендер имеет частичное грамматическое выражение, особенно через систему местоимений. Кроме того, исследуется влияние социокультурных факторов на выражение гендера, с особым вниманием к усиливающейся тенденции гендерной нейтральности в современном английском языке.

Ключевые слова: категория гендера, лингвистическое выражение, социокультурный подход, узбекский язык, английский язык, сравнительный анализ, гендерная нейтральность, грамматический род, лексические средства, социолингвистика.

Abstract. This study analyzes the expression of the gender category in Uzbek and English from both linguistic and sociocultural perspectives. Within the framework

of the research, the features of gender manifestation at grammatical, lexical, and semantic levels are examined, and similarities and differences between the two languages are identified. It is demonstrated that the Uzbek language does not possess a grammatical gender category, and that gender is mainly expressed through lexical and contextual means. In contrast, in English, gender has a partial grammatical expression, particularly through the system of pronouns. In addition, the influence of sociocultural factors on the expression of gender is explored, with special attention given to the growing tendency toward gender neutrality in modern English.

Keywords: gender category, linguistic expression, sociocultural approach, Uzbek language, the English language, comparative analysis, gender neutrality, grammatical gender, lexical means, sociolinguistics.

Kirish.

Zamonaviy tilshunoslikda gender kategoriyasi til tizimining muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida keng o'rganilmoqda. Dastlab biologik jins (erkak va ayol) tushunchasi bilan bog'liq holda talqin qilingan gender bugungi kunda ijtimoiy, madaniy va lingvistik omillar bilan chambarchas bog'liq murakkab hodisa sifatida qaralmoqda [4]. Shu bois gender kategoriyasini o'rganish nafaqat tilshunoslik, balki sotsiolingvistik, madaniyatshunoslik va tarjimashunoslik sohalarida ham dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Turli tillarda gender kategoriyasining ifodalanish darajasi va usullari sezilarli darajada farq qiladi. Ba'zi tillarda gender grammatik kategoriya sifatida mustahkam tizimga ega bo'lsa, boshqa tillarda u asosan leksik va semantik vositalar orqali ifodalanadi [3]. Shu nuqtai nazardan, o'zbek va ingliz tillari o'zaro qarama-qarshi tipologik xususiyatlarga ega bo'lib, ularni qiyosiy o'rganish ilmiy jihatdan muhim natijalar berishi mumkin.

O'zbek tili agglutinativ til sifatida grammatik gender kategoriyasiga ega emas va jinsni ifodalash asosan leksik birliklar hamda nutqiy kontekst orqali amalga oshiriladi [8]. Ingliz tilida esa gender kategoriyasi to'liq grammatik tizim sifatida shakllanmagan bo'lsa-da, u tabiiy jinsga asoslangan holda, ayniqsa olmoshlar va ayrim leksik birliklar orqali ifodalanadi. Bundan tashqari, zamonaviy ingliz tilida gender neytralligiga intilish tendensiyasi kuchayib borayotgani kuzatiladi. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, u ikki turli tipologik tizimga mansub tillarda gender kategoriyasining ifodalanish xususiyatlarini qiyosiy jihatdan tahlil qilish orqali til va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni chuqurroq anglash imkonini beradi [5]. Ayniqsa, globallashuv jarayonida turli madaniyatlararo aloqalarning kengayishi genderni oid lingvistik masalalarni yanada dolzarb qilib qo'ymoqda. Tadqiqotning maqsadi — o'zbek va ingliz tillarida gender kategoriyasining lingvistik hamda

sotsiomadaniy jihatdan ifodalanish xususiyatlarini aniqlash va ularni qiyosiy tahlil qilishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- gender kategoriyasining nazariy asoslarini yoritish;
- o‘zbek tilida gender ifodalanish vositalarini tahlil qilish;
- ingliz tilida gender kategoriyasining ifodalanish xususiyatlarini aniqlash;
- ikki tilni qiyosiy jihatdan solishtirish;
- genderning sotsiomadaniy omillar bilan bog‘liqligini asoslash.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda o‘zbek va ingliz tillarida gender kategoriyasi nafaqat lingvistik, balki sotsiomadaniy yondashuv asosida kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari qiyosiy tilshunoslik, sotsiolingvistika va tarjimashunoslik yo‘nalishlarida qo‘llanishi mumkin.

Adabiyotlar sharhi.

Gender kategoriyasi tilshunoslikda ko‘p qirrali va murakkab hodisa sifatida turli ilmiy yondashuvlar asosida o‘rganilgan. Xususan, gender masalasi dastlab grammatik jins doirasida tadqiq etilgan bo‘lsa, keyinchalik u sotsiolingvistik va madaniy aspektlarda ham keng tahlil qilina boshladi. Gender kategoriyasining lingvistik mohiyati haqida dastlabki fundamental tadqiqotlar ingliz tilshunosligida olib borilgan. Xususan, til va gender o‘rtasidagi munosabatni o‘rganishda Robin Lakoffning ishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Uning tadqiqotlarida ayollar nutqining o‘ziga xos xususiyatlari, til orqali gender stereotiplarining shakllanishi va mustahkamlanishi ilmiy asosda yoritilgan. Lakoff genderni nafaqat grammatik, balki ijtimoiy hodisa sifatida ko‘rib chiqadi [1]. Shuningdek, sotsiolingvistika sohasida olib borilgan tadqiqotlarda gender til va jamiyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni ifodalovchi muhim omil sifatida baholanadi. Shuningdek, Deborah Tannen tadqiqotlarida erkaklar va ayollar nutqi o‘rtasidagi kommunikativ farqlar, genderga xos nutq strategiyalari keng tahlil qilinadi [2]. Sotsiolingvistika doirasida gender til va jamiyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni ifodalovchi muhim omil sifatida baholanadi. Janet Holmes genderning ijtimoiy rollar bilan bog‘liqligini, nutqdagi farqlarni tizimli ravishda yoritadi [3]. Jennifer Coates esa erkak va ayol nutqining lingvistik xususiyatlarini chuqur tahlil qilib, genderning ijtimoiy konstrukt ekanligini asoslaydi [4]. George Yule va David Crystal ishlari esa gender kategoriyasining umumiy til tizimidagi o‘rni va turli tillarda ifodalanish darajasi bir-biridan farq qilishini ko‘rsatadi [6].

O‘zbek tilshunosligida ham gender kategoriyasiga oid ayrim ilmiy qarashlar mavjud. Xususan, Nazar Mahmudov til va jamiyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni yoritib, gender masalasining ijtimoiy jihatlarini ta’kidlaydi [7]. Anvar Nurmonov hamda G‘ulom Abdurahmonov ishlari o‘zbek tilida grammatik gender mavjud emasligini va jins asosan leksik hamda kontekstual vositalar orqali ifodalanishini ko‘rsatadi [8]. O‘zbek tilida grammatik gender kategoriyasining mavjud emasligi ko‘plab olimlar

tomonidan qayd etilgan[9]. Shu bilan birga, jinsni ifodalashda kontekst, juft soʻzlar va aniqlovchi birliklarning muhim roli taʼkidlangan. Soʻnggi yillarda gender kategoriyasini qiyosiy tilshunoslik nuqtai nazaridan oʻrganish tendensiyasi kuchaymoqda.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda oʻzbek va ingliz tillarida gender kategoriyasining ifodalanish xususiyatlarini oʻrganish uchun bir qator zamonaviy lingvistik metodlardan foydalanildi. Tadqiqot kompleks yondashuv asosida olib borilib, unda nazariy va amaliy tahlil usullari uygʻunlashtirildi. Avvalo, qiyosiy-tahliliy metod asosiy tadqiqot usuli sifatida qoʻllanildi. Ushbu metod yordamida oʻzbek va ingliz tillarida gender kategoriyasining ifodalanish shakllari oʻzaro solishtirildi, ularning oʻxshash va farqli jihatlari aniqlashtirildi. Bu usul ikki til tizimidagi strukturaviy va semantik tafovutlarni ochib berishda muhim ahamiyat kasb etdi. Tadqiqot jarayonida, shuningdek, deskriptiv (tasviriy) metoddan keng foydalanildi. Ushbu metod orqali har ikkala tilda gender kategoriyasining mavjud holati, uning grammatik, leksik va semantik darajadagi namoyon boʻlishi batafsil tavsiflandi. Bu esa til birliklarining tabiiy holatda qanday ishlatilishini aniqlash imkonini berdi[5]. Bundan tashqari, kontekstual tahlil metodi qoʻllanilib, gender ifodasining nutq jarayonida qanday yuzaga chiqishi oʻrganildi. Ayniqsa, oʻzbek tilida jinsning koʻpincha kontekst orqali aniqlanishi ushbu metod yordamida tahlil qilindi. Tadqiqotda sotsiolingvistik yondashuv ham muhim oʻrin egallaydi. Bu yondashuv orqali gender kategoriyasining jamiyat, madaniyat va ijtimoiy munosabatlar bilan bogʻliqligi tahlil qilindi. Xususan, ingliz tilida gender neytralligi tendensiyasining kuchayishi va uning ijtimoiy omillar bilan aloqasi oʻrganildi. Shuningdek, komponent tahlil metodi yordamida genderga oid leksik birliklarning semantik tarkibi oʻrganilib, ular orasidagi maʼno farqlari aniqlashtirildi. Bu usul ayniqsa erkak va ayol jinsini ifodalovchi juft soʻzlarni tahlil qilishda samarali boʻldi. Tadqiqotning empirik bazasini oʻzbek va ingliz tillaridagi badiiy adabiyotlar, ilmiy manbalar hamda kundalik nutq namunalari olingan misollar tashkil etdi.

Natijalar.

Tadqiqot natijalari oʻzbek va ingliz tillarida gender kategoriyasining lingvistik hamda sotsiomadaniy jihatdan ifodalanishida sezilarli farqlar mavjudligini koʻrsatdi. Oʻzbek tilida grammatik gender mavjud emas, yaʼni otlar, sifatlar va feʼllar jinsga qarab oʻzgarmaydi; masalan, “oʻqituvchi keldi” jumlasida shaxsning erkak yoki ayol ekanligi grammatik jihatdan emas, balki kontekst orqali aniqlanadi. Ushbu tilda gender asosan leksik vositalar yordamida ifodalanadi, jumladan, juftlik soʻzlar (ota–ona, aka–opa, er–xotin) hamda aniqlovchi birliklar (erkak shifokor, ayol oʻqituvchi) orqali ifodalanadi. Shuningdek, jins koʻpincha nutq yoki matn kontekstidan kelib chiqib aniqlanadi. Koʻplab kasb nomlarining jinsga bogʻliq emasligi (muallim, shifokor,

haydovchi) esa o‘zbek tilining tabiiy gender neytralligini namoyon etadi. Ingliz tilida esa grammatik gender qisman mavjud bo‘lib, asosan olmoshlar tizimi (he, she, it, they) orqali ifodalanadi. Shu bilan birga, jinsni ko‘rsatadigan leksik birliklar ham keng qo‘llanadi (actor–actress, waiter–waitress, king–queen). Zamonaviy ingliz tilida gender neytralligi tendensiyasi kuchayib borayotgan bo‘lib, bunda genderga xos bo‘lgan so‘zlar o‘rniga neytral variantlar (policeman o‘rniga police officer, chairman o‘rniga chairperson, stewardess o‘rniga flight attendant) qo‘llanilmoqda. Genderning nutqda va matnda ifodalanishi hamda uning moslashuvchanligi ko‘p jihatdan sotsiomadaniy omillarga bog‘liq bo‘lib, gender neytral shakllarning keng qo‘llanishi jamiyatda ijtimoiy tenglikka intilishning ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tilida grammatik gender mavjud emas, ingliz tilida esa u qisman olmoshlar orqali ifodalanadi; leksik vositalar har ikki tilda ham muhim ahamiyatga ega bo‘lsa-da, ingliz tilida ular ko‘proq grammatik xususiyatlar bilan bog‘liq; o‘zbek tilida genderni aniqlashda kontekst asosiy vosita hisoblanadi, ingliz tilida esa qo‘shimcha vosita sifatida xizmat qiladi [6]; shuningdek, gender neytralligi o‘zbek tilida tabiiy holatda mavjud bo‘lsa, ingliz tilida u zamonaviy sotsiolingvistik tendensiya sifatida rivojlanib bormoqda.

Xulosa. Ushbu tadqiqot o‘zbek va ingliz tillarida gender kategoriyasining lingvistik va sotsiomadaniy jihatdan ifodalanishini qiyosiy tahlil qilgan.

O‘zbek tilida gender ifodalanishi: Grammatik gender mavjud emas, til tabiiy gender neytral xususiyatga ega. Gender ko‘pincha leksik vositalar (juft so‘zlar va aniqlovchi birliklar) va kontekst orqali ifodalanadi. Kasb nomlari va umumiy nutq jinsga bog‘liq emas, bu tilning madaniy va ijtimoiy kontekstga moslashuvchanligini ko‘rsatadi.

Ingliz tilida gender ifodalanishi: Grammatik gender qisman mavjud bo‘lib, asosan olmoshlar orqali ifodalanadi (he, she, it, they). Leksik birliklar va juft so‘zlar orqali jins aniq ko‘rsatiladi (actor–actress, waiter–waitress). Zamonaviy tendensiya sifatida gender neytralligi kuchaymoqda, bu ijtimoiy tenglik va gender adolatini aks ettiradi. O‘zbek tilida genderning asosiy ifoda vositasi leksik va kontekstual, ingliz tilida esa grammatik va leksik vositalar. Gender neytralligi o‘zbek tilida tabiiy tarzda mavjud bo‘lsa, ingliz tilida jamiyatdagi ijtimoiy tendensiyalar bilan bog‘liq holda rivojlanmoqda. O‘zbek tilida gender ifodasi madaniy kontekst orqali aniqlanadi. Ingliz tilida grammatik va leksik vositalar bilan birga sotsiomadaniy omillar ham gender ifodalanishiga ta’sir qiladi. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, gender kategoriyasi faqat lingvistik hodisa emas, balki jamiyat, madaniyat va ijtimoiy tuzilmani aks ettiruvchi muhim omil hisoblanadi. O‘zbek va ingliz tillari genderni ifodalashda turlicha yondashuvga ega bo‘lib, bu tilning tipologik va madaniy

xususiyatlari bilan bog‘liq. Tadqiqot natijalari qiyosiy tilshunoslik, tarjimashunoslik, sotsiolingvistika va til pedagogikasi uchun amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Lakoff R. *Language and Woman’s Place*. – New York: Harper & Row, 1975.
2. Tannen D. *You Just Don’t Understand: Women and Men in Conversation*. – New York: Ballantine Books, 1990.
3. Holmes J. *An Introduction to Sociolinguistics*. – London: Routledge, 2013.
4. Coates J. *Women, Men and Language*. – London: Longman, 2004.
5. Yule G. *The Study of Language*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010.
6. Crystal D. *The Cambridge Encyclopedia of the English Language*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003.
7. Mahmudov N. *Til va jamiyat*. – Toshkent: Ma’naviyat, 2010.
8. Nurmonov A. *O‘zbek tilshunosligi tarixi*. – Toshkent: O‘zbekiston, 2012.
9. Abdurahmonov G‘. *Hozirgi o‘zbek adabiy tili*. – Toshkent: O‘qituvchi, 2008.